**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
________ O.Davranov
2025-yil ____-avgust

**O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**ONA TILINI O‘QITISH METODIKASI**
**fani bo‘yicha**

# SILLABUS

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti |
| **Ta’lim shakli:** | kechki |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi OTO'M309 | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025–2026 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS – Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 5 | Ona tilini o'qitishning umumiy masalalari | 4 | 4 | 60 | 20 | 0 | 40 | 0 | 60 | 120 |
| 6 | Ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik malakalarni shakllantirish metodikasi | 5 | 4 | 60 | 20 | 0 | 40 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 9 | 8 | 120 | 40 | 0 | 80 | 0 | 150 | 270 |

| Fanning maqsadi (FM) | |
|---|---|
| | Talabalarni Ona tilini o'qitish metodikasining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma'lumot berish hamda ona tilini o'quv predmeti sifatida qanday o'qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, ona tilini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. |

| Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar | |
|---|---|
| 1 | Umumiy psixologiya PSY108 |
| 2 | Umumiy pedagogika PED 208 |
| 3 | Hozirgi o'zbek adabiy tili: I HO'AT105; II HO'AT208; II HO'AT304 |
| 4 | Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika InkT.GP304 |



| Ta'lim natijalari |
|---|
| Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga quyidagi talablar qo'yiladi:<br>Talaba:<br>– ona tilini o'qitish metodikasining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar);<br>– til ta'limining umumiy va xususiy maqsadlari, mazmuni, vositalari, usul va metodlari mutanosibligini ta'minlash asosida ona tili darslarini loyihalashtirish;<br>– ona tili ta'limidagi kommunikativ, germenevtik, kognitiv-pragmatik, integrativ, antroposentrik yondashuvlar;<br>– o'quvchilarda nutqiy (o'qiv va tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq) ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan ***bilimga;***<br>– ona tili darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish;<br>– ona tili ta'limida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llab, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalana olish;<br>– fanga oid darsdan tashqari mashg'ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta oladi.<br>– ona tili ta'limida nutqiy, lingvistik va hayotiy (XXI asr ko'nikmalari) ko'nikmalarni shakllantirish;<br>– ta'lim jarayonida innovatsion usullardan samarali foydalanadi, o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtira olish yuzasidan ***ko'nikmaga;***<br>– ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, ona tili fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirib muammoli o'qitish yuzasidan ***malakaga;***<br>– mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llay bilish;<br>– fan dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;<br>– ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni hamda zamon talabiga mos darslarni tashkil qila olish hamda o'quvchilarda lingvistik, nutqiy kompetensiyalarni teng rivojlantirish, grammatik bilimlarni ongli o'zlashtirilishiga erishish, tilga oid nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash maqsadida mavzular o'rtasidagi uyg'unlikni topa olish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.*** |

## Talabalarning kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanidan **V semestr 120 soat, VI semestrda 150 soat** *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga V semestr 4, VI semestrda 5 **kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi:**

**Oraliq nazorat**: o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Fan bo'yicha semester davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki (loyiha taqdimoti) shaklda o'tkaziladi.

**Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:**

**A'lo** (*5 baho*) baho olish uchun talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qilishi, ijodiy fikrlay olishi, mustaqil mushohada yuritishi, olgan bilimini amalda qo'llay olishi, fanning mohiyatini tushunib, bilib, ifodalay olishi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi shart.

**Yaxshi** (*4 baho*) baho olish uchun talaba mustaqil mushohada yuritishi, olgan bilimini amalda qo'llay olishi, fanning mohiyatni tushunib, bilishi, ifodalay olishi, aytib berishi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi shart.

**Qoniqarli** (*3 baho*) baho olish uchun uchun talaba olgan bilimini amalda qo'llay olishi, fanning mohiyatni tushunishi, bilishi, ifodalay olishi, aytib berishi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi shart.

**Qoniqarsiz** (*2 baho*) talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmagan hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qo'yiladi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi (5-semetr)**

**Oraliq nazorat:**

Semestr davomida 2 marta o'tkaziladi.

**1-oraliq nazorat** o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi. Bir juftlik davomida 2ta savol beriladi. Nazariy savolga 2 ball, amaliy savolga 3 ball.

1. Ona tili o'qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot bering.

2. Ona tilini o'qitishda ilmiylik va tushunarlilik tamoyilini ochib beruvchi bitta topshiriq tuzing va tahlil qiling.

**2-oraliq nazorat** o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi. Bir juftlik davomida 2ta savol beriladi. Nazariy savolga 2 ball, amaliy savolga 3 ball.



1. Tinglab tushuning psixolingvistik va lingvodidaktik aoslari haqida ma'lumot bering.

2. 10-sinf o'quvchilarida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun tanlangan matn asosida o'quv topshirig'i tuzing.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha **yozma** shaklda o'tkaziladi.

1. Mustaqillikdan keyin ona tili ta'limi rivoji va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning psixolingvistik va lingvodidaktik asoslari.

3. Mustaqil o'qilgan ilmiy maqola tahlili.

**2. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi (6-semetr)**

**Oraliq nazorat:**

Semestr davomida 2 marta o'tkaziladi.

**1-oraliq nazorat** o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi. Bir juftlik davomida 2ta savol beriladi. Nazariy savolga 2 ball, amaliy savolga 3 ball.

1. Yozma muloqot ko'nikmalarini shakllantirish maqsadi va bosqichlari.

2. Imloviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan topshiriq namunasini yarating.

**2-oraliq nazorat** o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi. Bir juftlik davomida 2ta savol beriladi. Nazariy savolga 2 ball, amaliy savolga 3 ball.

1. 5-sinflarda ona tili darslarini tashkil etish mazmuni.

2. 6-sinflar uchun nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ishlab chiqing.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha **og'zaki** (loyiha taqdimoti) shaklda o'tkaziladi.

MDH davlatlari va xorijda til o'qitishga oid manbalar bilan tanishing. Zamonaviy yondashuv asosida xorijda yaratilgan o'quv dasturi va "Ona tili" darsliklari, o'qituvchi kitoblari mazmunini o'rganing. Muayyan sinf darsligini tanlagan holda xorijiy va milliy "Ona tili" darsligining qiyosiy-tanqidiy tahlilini ishlab chiqing.

**Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

| № | Fan mazmuni | Soatlar hajmi |
|---|---|---|
| | **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (5-semestr)** | **20** |
| M 1 | Ona tili o'qitish metodikasi – pedagogik sikldagi mustaqil fan | 2 |
| M 2 | Falsafiy tafakkur va til ta'limi | 2 |
| M 3 | Ona tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ilmiy-tadqiqot metodlari | 2 |
| M 4 | Ona tili o'qitish metodikasiga global ta'limni tatbiq etish mazmuni | 2 |
| M 5 | Ona tili fani bo'yicha DTS va o'quv dasturlari mazmuni: tarixi va buguni | 2 |
| M 6 | Ona tilini o'qitishdagi yondashuvlar. Umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillar | 2 |
| M 7 | Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida ona tilini o'qitish tajribasi | 2 |
| M 8 | O'quvchilarda o'qib va tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning psixolingvistik va lingvodidaktik asoslari | 2 |
| M 9 | O'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish metodikasi | 2 |
| M 10 | O'quvchilarda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish metodikasi | 2 |
| | | |
| | **Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (5-semestr)** | **40** |
| A 1 | Ona tilini o'qitishning tarixiy taraqqiyoti. Ona tili ta'limining umumiy va xususiy maqsadlari | 2 |
| A 2 | Ona tili o'qitishda mantiqiy fikrlash. Voqelikni obrazli tasvirlash | 2 |
| A 3 | Ona tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi | 2 |
| A 4 | Ona tili o'qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari | 2 |
| A 5 | Ona tilining boshqa fanlarni o'rganishdagi o'rni | 2 |
| A 6 | O'qitishda tasavvur, tasvir va ta'rif uyg'unligi | 2 |
| A 7 | Ona tilini o'qitishga oid o'quv dasturlari mazmuni | 2 |
| A 8 | Til o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va ularni tatbiq qilish usullari | 2 |
| A 9 | Til ta'limi va pedagogik texnologiya | 2 |
| A 10 | Ona tili darslarida o'qituvchi – o'quvchining pedagogik hamkorligi | 2 |
| A 11 | Ona tili o'qitishda ta'lim, tarbiya va rivojlanish uyg'unligi, ilmiylik va tushunarlilik tamoyili | 2 |
| A 12 | Ona tili o'qitishda "til – me'yor – nutq mutanosibligi" | 2 |
| A 13 | Ona tili o'qitishda AKT dan foydalanish mazmuni | 2 |



| | | |
|---|---|---|
| A 14 | Ona tili o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini hisobga olish | 2 |
| A 15 | Til o'qitish va tilni o'zlashtirish | 2 |
| A 16 | Rivojlangan davlatlarda til o'qitish (1-tilni o'qitish) tajribasi | 2 |
| A 17 | O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish | 2 |
| A 18 | O'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish | 2 |
| A 19 | O'quvchilarda lingvistik ko'nikmalarni shakllantirish | 2 |
| A 20 | So'z darajasidagi lingvistik ko'nikmalar ustida ishlash | 2 |

| № | Mustaqil ta'lim (MT) (5-semestr) | | | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| | **Mustaqil ta'lim mavzulari** | **O'quv mashg'ulot turi nomi** | **Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)** | **60** |
| MT 1 | Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish | Amaliy | Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganish, mustaqil izlanish, ma'lumot to'plash, tahlil qilish | 20 |
| MT 2 | Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish | Amaliy | DTS, MO'D, "Ona tili" darsliklari, darsliklarning ichki tuzilishi, shakl va mazmuniy tahlili | 10 |
| MT 3 | Ona tilini o'qitishga oid sinflar kesimida loyiha tayyorlash | Amaliy | Loyiha, loyiha topshirig'i, o'quv-loyihaviy faoliyat | 10 |
| MT 4 | "Til va adabiyot ta'limi", "Xalq ta'limi" kabi sohaga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish va tezislar tayyorlab borish | Amaliy | Maqola, tezis, tahlil qilish ko'nikmasi, maqolaga taqriz yozish | 10 |
| MT 5 | Ona tilini o'qitishga oid kichik tajribaviy tadqiqotlar olib borish | Ma'ruza | Kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnoma, intervyu ilmiy-tadqiqot metodlari | 10 |

| № | Fan mazmuni | Soatlar hajmi |
|---|---|---|
| № | **Mashg‘ulotlar turi: ma’ruza (M) (6-semestr)** | **20** |
| M 1 | O‘quvchilarda lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi | 2 |
| M 2 | Bayon va esse yozishni o‘rgatish metodikasi | 2 |
| M 3 | 5–7-sinflarda ona tili ta’limini tashkil etish | 2 |
| M 4 | 8–9-sinflarda ona tili ta’limini tashkil etish | 2 |
| M 5 | 10–11-sinflarda ona tili ta’limini tashkil etish | 2 |
| M 6 | Ijod maktablarida ona darslarini tashkil qilish metodikasi | 2 |
| M 7 | Ona tili o‘qituvchisi faoliyatida qo‘llanadigan hujjatlar. Darsdan tashqari ishlarni tashkil etish | 2 |
| M 8 | O‘quv va metodik qo‘llanmalar, ulardan foydalanish texnologiyasi | 2 |
| M 9 | Dars turlari. Nutqiy va lingvistik malakalarni baholash mazmuni | 2 |
| M 10 | Ona tili ta’limida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish | 2 |

| № | Mashg‘ulotlar shakli: amaliy (A) (6-semestr) | 40 |
|---|---|---|
| A 1 | Gap darajasidagi lingvistik ko‘nikmalar ustida ishlash | 2 |
| A 2 | Matn darajasidagi lingvistik ko‘nikmalar ustida ishlash | 2 |
| A 3 | O‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi | 2 |
| A 4 | O‘quvchilarda yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi | 2 |
| A 5 | Yozish strategiyalari. Ona tili darslarida ijodiy matn yaratishga o‘rgatish mazmuni | 2 |
| A 6 | Bayon yozish usullari | 2 |
| A 7 | Esse turlarini o‘rgatish metodikasi | 2 |
| A 8 | Esse turlarini o‘rgatish usullari | 2 |
| A 9 | 5-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 10 | 6-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 11 | 7-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 12 | 8-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 13 | 9-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 14 | 10-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 15 | 11-sinf o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 16 | Ijod maktabi o‘quvchilari uchun didaktik material tayyorlash | 2 |
| A 17 | Ona tili o‘qituvchisi faoliyatida qo‘llanadigan hujjatlar | 2 |
| A 18 | “O‘qituvchi kitobi” va qo‘shimcha manbalar bilan ishlash | 2 |
| A 19 | Ta’limiy va nazorat darslarini tashkil etish | 2 |
| A 20 | Ona tili darslarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish | 2 |



| № | Mustaqil ta’lim (MT) (6-semestr) | | | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| | **Mustaqil ta’lim mavzulari** | **O‘quv mashg‘ulot turi nomi** | **Qisqacha tavsifi (kalit so‘zlar)** | **90** |
| MT 1 | Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish | Amaliy | Tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘rganish, mustaqil izlanish, ma’lumot to‘plash, tahlil qilish | 20 |
| MT 2 | Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish | Amaliy | DTS, MO‘D, “Ona tili” darsliklari, darsliklarning ichki tuzilishi, shakl va mazmuniy tahlili | 15 |
| MT 3 | Ona tilini o‘qitishga oid sinflar kesimida loyiha tayyorlash | Amaliy | Loyiha, loyiha topshirig‘i, o‘quv-loyihaviy faoliyat | 20 |
| MT 4 | “Til va adabiyot ta’limi”, “Xalq ta’limi” kabi sohaga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish va tezislar tayyorlab borish | Amaliy | Maqola, tezis, tahlil qilish ko‘nikmasi, maqolaga taqriz yozish | 15 |
| MT 5 | Ona tilini o‘qitishga oid kichik tajribaviy tadqiqotlar olib borish | Amaliy | Kuzatish, suhbat, anketa-so‘rovnoma, intervyu ilmiy-tadqiqot metodlari | 20 |

| № | Kurs ishi uchun mavzular banki |
|---|---|
| 1 | Ona tilidan integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish metodikasi |
| 2 | O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishning samarali usullari |
| 3 | Ona tili darslarida o‘quvchilarni ish qog‘ozlari bilan ishlashga o‘rgatish metodikasi |
| 4 | Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda o‘quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish metodikasi |
| 5 | Ona tilini o‘qitishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish |
| 6 | Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda badiiy va matbuot materiallaridan foydalanish |
| 7 | Ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish |
| 8 | Ona tili ta’limida grammatik jadvallardan foydalanish |
| 9 | Ona tili fanidan darsliklarning yangi avlodini yaratish muammosi |

| | |
|---|---|
| 10 | Esse va uning turlarini o‘rgatish metodikasi |
| 11 | Ta’lim bosqichlarida nutq uslublarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish |
| 12 | Til bo‘limlarini o‘qitishda didaktik o‘yinlarni tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi |
| 13 | Ona tili darslarida lingvistik mashqlarning o‘rni, maqsadi, tarkibi va usullari |
| 14 | Ona tili ta’limini optimallashtirish – ta’lim samaradorligini oshirish yo‘li |
| 15 | Yozma ishlardagi xatolar va ularni bartaraf etish usullari |
| 16 | Ona tili darslarida o‘quvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi |
| 17 | Innovatsion ta’lim sharoitida o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi |
| 18 | Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakasini shakllantirish |
| 19 | Ilg‘or pedagogik texnologiyalarning turlari va mazmuni (ona tili darslari misolida) |
| 20 | Lingvistik bilimni kontekst orqali berish metodikasi |
| 21 | Til ta’limida ko‘rgazmalilikning o‘rni |
| 22 | Ona tili darslarida o‘quvchilarning eshitib tushunish malakasini shakllantirish |
| 23 | Ona tili darslarida adabiy insho yozish ko‘nimasini rivojlantirish metodikasi |
| 24 | Ta’lim bosqichlarida gap va uning turlarini nutqiy vaziyatlar orqali o‘rgatish usullari |
| 25 | O‘quvchilar nutqini o‘stirishda frazeologik birliklardan foydalanish |
| 26 | Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishda badiiy asar va matbuot materiallaridan foydalanish |
| 27 | O‘quv topshiriqlari orqali nutq o‘stirish metodikasi |
| 28 | Ona tili darslarida o‘quvchilar so‘z boyligini nutqiy vaziyatlar orqali oshirish usullari |
| 29 | Yozma nutq o‘stirish mazmuni va usullari |
| 30 | Ona tilini boshqa gumanitar fanlarga bog‘lab o‘rganish |
| 31 | Turli uslubdagi matnlar bilan ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasi |
| 32 | Ona tilidan o‘quvchilar bilimini baholash mazmuni va mezonlari |
| 33 | Ona tilidan interaktiv to‘garaklarni tashkil qilish metodikasi |
| 34 | Bayon yozdirish orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish |
| 35 | Ona tili darslarida ta’limiy bayon o‘tkazish metodikasi |



| | |
|---|---|
| 36 | Ona tili darslarida ilmiy insho yozish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi |
| 37 | O‘quvchilarning esse yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari |
| 38 | Ona tili darslarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish usullari |
| 39 | Ona tili ta’limi jarayonida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish metodikasi |
| 40 | Ona tili darslarida tashkil qilinadigan ta’limiy o‘yinlarning turlari va mazmuni |
| 41 | Ona tili ta’limida muhokama matn yozish usullari |
| 42 | Ona tili ta’limida tasviriy matn yozish usullari |
| 43 | Ona tili ta’limida evristik topshiriqlar yaratish metodikasi |
| 44 | Ona tili darslarida hamkorlikda ta’lim berish usullari |
| 45 | Ona tili darslarida loyihalash metodidan foydalanish muammosi |
| 46 | Adabiy talaffuz mashqlari bilan ishlash orqali nutq o‘stirish |
| 47 | Til ta’limi va xorij tajribasi (1-tilni o‘qitish misolida) |
| 48 | Ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish usullari |
| 49 | Ona tilidan fan to‘garaklarini tashkil etish metodikasi |
| 50 | Til ta’limi va falsafaning aloqadorligi |


| № | Asosiy adabiyotlar: |
|---|---|
| 1 | To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –-- Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. |
| 2 | G‘ulomov A., Qodirov M. va b. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. |
| 3 | Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2021. |
| | **Qo‘shimcha adabiyotlar:** |
| 4 | O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent. 2020-yil, 23-sentyabr. |
| 5 | Юсупова Ш. Тил таълими ва фалсафа. – Андижон, 2009. 100 б. |
| 6 | Xolmanova Z., Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. |
| 7 | Юсупова Т., Мавлонова К., Наралиева Ш. Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. 1-қисм: ўқув қўлланма. – Алматы: Эверо, 2021. – 216 б. |
| 8 | Юсупова Т., Мавлонова К., Наралиева Ш.Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. 2-қисм: ўқув қўлланма. – Алматы: Эверо, 2021. – 204 б. |

| | |
|---|---|
| 9 | Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. |
| 10 | Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2021. – 154 b. |
| 11 | Mavlonova K. va b. Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 154 b. |
| 12 | Mavlonova K. va b. Ona tili ta’limida grammatik yondashuv mohiyati."Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani mater. – Toshkent, 2024. – B. 17–22. |
| 13 | Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent, 2019. |
| 14 | Abdurahim Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, – 2021. 126 b. |
| 15 | Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023. 264 b. |
| 16 | Amaldagi maktab darsliklari. |
| **Axborot manbalari:** | |
| 17 | https://lex.uz |
| 18 | https://ziyouz.com |
| 19 | https://t.me/Til_va_adabiyotuz |
| 20 | https://en.snu.ac.kr/academics/programs/undergraduate |
| 21 | file:///C:/Users/admin/Downloads/Korean_Language_Education.pdf |
| 22 | https://www.reading.ac.uk/ |
| 23 | https: //www.hu-berlin.de/en |

| Fan o‘qituvchisi to‘g‘risida ma’lumot | |
|---|---|
| **Muallif:** | K.M.Mavlonova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) |
| **Email:** | klara_mavlonova@mail.ru<br>klaramavlonova78@gmail.com |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti |
| **Taqrizchilar:** | G‘.H.Hamroyev – Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) |
| | T.A.Yusupova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi |



Mazkur sillabus universitet o‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 28-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

**O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i** **V.Nazarov**
**Kafedra mudiri** **S.Muhamedova**
**Tuzuvchi** **K.Mavlonova**
**N.Turg‘unova**
**ARM direktori** **Z.Jumayeva**